



Oxirgi uch yilda hisoblangan va to'langan dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlar (so'mda)

Hisoblangan

| Yil | Bir dona aksiyaga | Jami | Divident solig'i | To'langan | Qarzdorlik |
|------|-------------------|-------------|------------------|-------------|-------------|
| 2018 | 400 | 289 640 000 | 28 964 000 | 135 252 585 | 279 967 558 |
| 2019 | 400 | 289 640 000 | 28 964 000 | 239 611 835 | 301 031 723 |
| 2020 | 400 | 289 640 000 | 28 964 000 | 257 036 083 | 304 671 640 |

Ma'lumot kalendar yili asosida taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 42 moddasiga muvofiq aksiyador uning aksiyalarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmat ko'rsatayotgan depozitariyga shaxsiy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida bildirishi lozimligi haqida xabar beramiz. Aksiyador shaxsiy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida xabar bermagan holatlarda Markaziy depozitariy va uning aksiyalarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmat ko'rsatayotgan depozitariy aksiyadorga shu sababli yetkazilgan zarar uchun javob bermaydilar.

Shu munosabat bilan, depozitar hujjatlarni dolzarb holatda saqlab turish uchun "Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJda chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga oladigan "Buxoro VAQT" MChJga murojaat etishingizni qat'iy iltimos qilamiz. "Buxoro VAQT" MChJ manzili: Buxoro sh., Mustaqillik ko'chasi, 10 uy.

"Buxoro VAQT" MChJga murojaat etishda yoningizda passport, pensionerlarda esa – pensiya guvohnomasi bo'lishi lozim.